



**2021-YILGI MAVSUMDA O'ZBEKISTON  
PROFESSIONAL FUTBOL LIGASI  
TOMONIDAN O'TKAZILADIGAN  
MUSOBAQALAR REGLAMENTIGA  
KIRITILGAN O'ZGARTIRISH VA  
QO'SHIMCHALAR**

**UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE**

Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Professional futbol ligasi ijroiya qo'mitasining 2021-yil 6-iyuldagи yig'ilishida ma'qullangan.



**UZBEKISTAN**  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE

2021-yilning 15-may kuni O'zbekiston futbol assotsiatsiyasida bo'lib o'tgan Superliga hamda Pro liga futbol klublari rahbarlari bilan yig'ilishda bildirilgan takliflardan kelib chiqib, "2021-yilgi mavsumda O'zbekiston Professional futbol ligasi tomonidan o'tkaziladigan musobaqalar reglamenti"ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

**1. 4-bob** quyidagi mazmundagi 4.5-bandi bilan to'ldirilsin:

**4.5.** Yoritish tizimi 1000 lyuksdan past bo'lgan stadionlar uchun yoz oylari davomida uchrashuvlarni o'tkazish taqiqlanadi. Bunday holatda mezbon klub uchrashuvni yoritish tizimi 1000 lyuksdan kam bo'limgan neytral maydonda o'tkazishi lozim. Shuningdek, bunday jamoaga raqib jamoa bilan davralar davomidagi uchrashuvlar manzilini o'zaro almashtirish imkoniyati taqdim etilishi mumkin.

Agar stadionidagi yoritish tizimi 1000 lyuksdan kam bo'lgan jamoa taqvimda belgilangani bo'yicha uy uchrashuvini belgilangan muddatda tashkil etish imkoniyatiga ega bo'imsa, mazkur jamoaning uy uchrashuvi avtomatik ravishda raqib jamoa maydoniga ko'chiriladi yoki unga texnik mag'lubiyat yoziladi.

**2. 17-bobning** 17.5-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**17.5.** Epidemiologik sharoitdan kelib chiqib, uchrashuv davomida almashtiriladigan futbolchilarning ruxsat etilgan soni quyidagicha etib belgilanadi:

- Superliga — 5 ta (uch urinishda);
- O'zbekiston kubogi — 5 ta (uch urinishda). Shuningdek, +1 ekstra taymda;
- U-21 — 5 ta;
- U-18 — 5 ta;
- U-16 — 7 ta;
- U-14 — 7 ta;
- Pro liga — 5 ta (uch urinishda);
- Birinchi liga — 5 ta;
- Ayollar Oliy ligasi — 5 ta (uch urinishda);
- Ayollar Birinchi ligasi — 5 ta;
- U-16 ayollar — 7 ta.

**3. 17-bobning** 17.9-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**17.9.** Musobaqa ishtirokchilari uchrashuv qaydnomasiga 11 nafar asosiy va 9 nafar zaxira futbolchisini kiritishi mumkin. Shuningdek, qaydnomadan O'zPFL

litsenziyaga ega bo'lgan 7 nafargacha rasmiy shaxs joy olishi mumkin. Rasmiy shaxslar orasida klub shifokorining bo'lishi majburiydir. Zaxira o'rindig'iga uchrashuv qaydnomasida bo'limgan shaxs qo'yilmaydi.

**4. 17-bobning** 17.16-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**17.16.** Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan zaxira futbolchilaridan faqat 8 nafariga o'z zaxira o'rindig'iga yaqin darvoza ortidagi burchak bayrog'i zonasida chigalyozdi mashqlarini bajarishga ruxsat beriladi. Bunda jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy ishtirok etishi mumkin. Zaxiradagi futbolchilar libosi maydondagi futbolchilar va hakamlar libosidan farqlanishi lozim. Bunda mashg'ulot o'tkazayotgan futbolchilar to'plardan foydalana olmaydi (darvozabon bundan mustasno).

**5. 18-bobning** 18.10-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**18.10.** Superliga, Pro liga hamda O'zbekiston kubogi musobaqalarida klublar uchrashuv startiga 24 soat vaqt qolgunicha uchrashuvda ishtirok etishi mumkin bo'lgan 23 kishilik kengaytirilgan ro'yxatni o'z rasmiy sayti hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali jamoatchilikka ma'lum qilishi tavsiya etiladi.

Shuningdek, epidemiologik vaziyat bilan bog'liq holatda O'zPFLga o'yindan 24 soat avval tibbiy test natijalari va ishtirokchilar ro'yxati taqdim etilishi shart.

**6. 18-bob** quyidagi mazmundagi 18.19 hamda 18.20-bandlari bilan to'ldirilsin:

**18.19.** Musobaqa davomida yoki uning yakunida bosh murabbiy, klub rahbari yoki futbolchisi uchrashuv hakamligiga nisbatan o'z e'tirozini bildirsa, biroq uchrashuv rasmiy qaydnomasiga Reglamentning 16.2-bandida ko'rsatilgani bo'yicha shikoyat arizasiga kiritmasa, e'tiroz bildirgan shaxs hamda klubga nisbatan O'FAning "Intizom kodeksi"ga muvofiq jarima sanksiyasi qo'llaniladi.

**18.20.** Musobaqa davomida jamoa uchun belgilab berilgan texnik zonada faqatgina bosh murabbiyning (zarur holatda shifokor yoki tarjimonning) erkin harakatlanishi hamda maydondagi futbolchilarga ko'rsatma berishi uchun ruxsat etiladi. Qolgan barcha holatlarda klubning bosh murabbiyidan boshqa vakiliga nisbatan O'FAning "Intizom kodeksi"ga muvofiq jarima sanksiyasi qo'llaniladi.

**7. 21-bobning** 21.4 va 21.5-bandlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**21.4.** Pro liga ikki bosqichli va to'rt davrali tizimda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda 10 ta klub 9 ta uy va 9 ta safar (ikki davra) — jami 18 ta tur uchrashuvida

maydonga tushadi. 18-turdan keyin jadval teng ikki qismga bo'linadi (ikki klub musobaqani muddatidan avval tark etgani inobatga olingan holda). Bunda yuqori to'rtlik Superliga yo'llanmasi uchun kurashni davom ettiradi hamda har bir klub o'zaro yana 3 ta uy va 3 ta safar (yana ikki davra) — jami 6 ta uchrashuvda maydonga tushadi. Quyi to'rtlik Pro ligadagi o'rnini saqlab qolish uchun kurashni davom ettiradi hamda har bir klub o'zaro 3 ta uy va 3 ta safar (yana ikki davra) — 6 ta uchrashuvda maydonga tushadi.

Pro liga musobaqasi natijasiga ko'ra 1-2 o'rinni egallagan jamoalar Superligaga to'g'ridan-to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritadi.

**21.5.** Birinchi liga musobaqasida 11 jamoa g'oliblik uchun kurash olib boradi va har bir jamoa berger tizimi asosida bir martadan uy-safar uchrashuvlarida ishtirok etadi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, dastlabki ikki o'rinni qo'lga kiritgan klublar litsenziyalash talablariga javob berish shartida 2022 yilgi mavsum uchun Pro liga yo'llanmasini qo'lga kiritadi. 11-o'rinni qo'lga kiritgan jamoa esa Birinchi ligani tark etadi.

**8.** Mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar 2021-yilning 29-iyulidan boshlab kuchga kiradi.

**UZBEKISTAN  
PROFESSIONAL FOOTBALL  
LEAGUE**